

NAVOIY IJODIDA NUTQ MADANIYATI MASALALARI

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi

Ona tili fani o'qituvchisi

Noralieva Dildora Abduvalikovna

Annotatsiya: *Navoiy ijodida nutq madaniyati masalalarxaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, lug'at kitoblar, "Muhokamat-ul-lug'atayn" asari.*

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o'zbek tili boyligini namoyon etuvchi mashhur asarlar yaratdi. Navoiyning sa'y-harakatlari tufayli XV asrda o'zbek tili olamga dong'i ketadigan adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanligini isbotladi.

Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda kabi mutafakkir shoir va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergan o'zbek mumtoz adabiy tili me'yorlari mukammalashib bordi.

Navoiy o'z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. "Mahbub ul-qulub" asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, "Muhokamat ul lug'atayn" asarida o'zbek adabiy tilining boyligini e'tirof etdi. Nainki e'tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidladi. So'zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo'lmas ekan, tilning, so'zning cheksiz imkoniyatlari ruyobga chiqib chiqmay qolaveradi. "Majolisun-nafois" da so'zning voizlari hayotida tutgan o'rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. "Nazmul javohir" asarida esa so'z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o'tiladi. Tarixdan ma'lumki, Navoiyning o'zi ham mohir notiq bo'lgan va shirin kalomi, o'tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o'z asarlarida ham xaloyiqqa naf'i tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin-zabon so'zlar so'zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo'llarini o'rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan

Alisher Navoiy faqat o'zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir.

Navoiy adabiyotshunos sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qiladigan ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Xususan, uning o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixi uchun noyob manba sifatida katta ahamiyatga ega «Majolis un-nafois» asarida 459 ta shoir, yozuvchi, ijodkor haqidagi ma'lumotlar jamlangan. «Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohruh mirzo podshohligi davridan boshlab, shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan

bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko'plarining ba'zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi»– deb bildiradi Xondamir.

Alisher Navoiydan bizga buyuk bir adabiy – ilmiy meros qolgan. Hozirgi kunlarda Navoiyni tushunish, ijodiy merosini targ'ib va tashviq etishni ilmiy asoslarda tashkil qilish masalasi davlat siyosati darajasiga qo'yilmoqda ekan, navoiyxonlarga muayyan qulaylik yaratilayotgan bir paytda barchaning zimmasidagi mas'uliyat hissi yanada oshadi.

Alisher Navoiy yirik va hassos tilshunos olim hamdir. Uning 1498-yilda yaratilgan «Muhokamat ul-lug'atayn» asari tilshunosligimiz xazinasidagi bebaho gavhardir. Unda alloma adib, o'z tili bilan aytganda «nazm gulistonining andalibi nag'masaroyi» sifatida eski o'zbek tilini, uning badiiy uslubini ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama asosladi, turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan isbotlab ko'rsata oldi. Alisher Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida urg'u qaratadi. O'zbek tilidagi ifoda imkoniyatlarining boyligini namoyish qiladi. Har bir so'zdagi ma'no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib beradi. U arab, fors, hindiy tillari qatorida o'zbek tilining ham eng qadimiy tillardan biri ekanligini alohida ta'kidlaydi. Fikrlarini qiyoslash usulidan foydalangan holda bayon etadi.

Tirik insongina so'zlash qobiliyatiga ega, so'z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. So'z do'stdan, yoru-birodardan xabar beradi. Insonni hayvondan judo qilgan ham so'z ekan, demak dunyoda so'zdan gavhari sharif-ulug' narsa yo'qdir.

Kishining ko'ngli daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi g'avvosga o'xshaydi. Dur turli bo'lgani singari so'z ham turlicha bo'ladi. Yaxshi so'z kishiga jon baxsh etsa, yomon so'z insonni halok etishi ham mumkin. Til-ma'rifat va adabiyot quroli ekan, so'z so'zlashdan maqsad ma'no ifodalashdir deydi shoir.

Navoiy tilni o'sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o'zaro aloqada bo'ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug'ma ekanligini ta'kidlaydi. «Muhokamatul-lug'atayn» asarida arab tili «kalomi ilohiy» deb ulug'lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lug'at boyligi, so'z yasalishi, fonetik tarkibi, stilistikasi kabi xususiyatlarini chog'ishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilida qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti bo'lmagan o'zbekcha so'zlarni misol keltiradi. «Muhokamatul lug'atayn» asari bevosita tilshunoslining nazariy muammolarini hal qilishga, o'zbek tilining boshqa tillar orasida tutgan o'rnini belgilab berishga, o'zbek nutqi madaniyatini o'rganishga qaratilgan. Mutafakkir asarlarida o'zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq ta'biri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalandi.

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari «Mahbub ul-qulub» dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so'zlovchi dilidagi fikrni to'g'ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

“Saodatbaxsh ruh zuloliga matla` ham til. Tilga iqtidorlig'-hakimi xiradmand, so`zga ixtiyorsiz-layni najand. Tilki fasih va dilnazir bo`lgay, xubroq bo`lgay agar ko`ngil bila bir bo`lgay” deb yozadi Navoiy.

Ma`nosi: “Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir: so`zga ahamiyat bermaydigan kishi la`natlangan, pastdir. Til go`zal va dillarni olovlantiruvchi bo`lishi bilan birga, so`zlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo`ladi”.

Navoiy til deganda nutqni ko`zda tutgan. Til, ya`ni so`z o`zining ko`p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo`polligi, maqsadga muvofiq bo`lmasligi so`zlovchiga zarur yetkazishini alohida ta`kidlab o`tadi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so`zlash odobi haqida, o`ylamasdan so`zlamalik lozimligi haqida: “Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig`liqqa evruldi, zarari oni bo`ldi. Chuchuk so`z sof ko`ngullarga nushdir... So`zni ko`ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko`nglungda bo`lsa, tilga surma” deydi. Buning ma`nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo`ladi. Chuchuk so`zni toza ko`ngullar simiradi... So`zni ko`ngulda pishitib olmaguncha so`zlamagin, ko`nglingda bo`lgan har qanday fikrni ham ayta berma. Nutqdan maqsad fikr anglatishdir: “Ammo so`zlar va saboqlardin murod ma`nodur”.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug`ullangan shoir “Mahbubo`l-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag`ishlaydi. Navoiyning o`zi ham notiqlik san`atini o`z davrida yuksak darajaga ko`targan. “Tilga ixtiyorsiz-elga e`tiborsiz” yoki “Ma`dani inson gavhari so`z durur, gulshani odam samari so`z durur” deb yozadi. Navoiy 24 bob “Nasihah ahli va voizlar zikriga” bag`ishlangan bo`lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg`a kirgan to`lg`ay va to`la kirgan holi bo`lg`ay”.

Navoiy ta`kidlashicha, shirin so`z bilan ko`p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Hatto “chuchuk so`z elga izhor” etish orqali u kim bo`lmasin, “har nechakim ag`yor zurur yor” ga aylanadi.

Navoiy “Xamsa” ning deyarli barcha dostonlarida “So`z ta`rifida...” sarlavhasi ostida boblar ajratadi. O`zining g`azallaridan birida so`z haqida fikr yuritar ekan, “Xamsa” dagi har bir harf (so`z emas, harf) o`zida ko`plab durlarni jamlagan “bahr erur” ligini ta`kidlaydi. Kengroq mazmunda esa, har bir so`zga singdirilgan chuqur mohiyat va ma`no nazarga olinsa ham xato bo`lmaydi.

“Xamsa” ichraki, anga har bir har

Bahr erur, zimnida yuz durri shingraf.

“So`z” deganda Navoiy nimalarni nazarda tutadi? Professor A.Hayitmetov shunday yozadi: “Navoiy “so`z” ni o`z asarlarida ko`p ma`noda ishlatadi. U “so`z” termini ostida insoniyatning hamma ma`naviy boyligini-alohida ijtimoiy kategoriya bo`lgan tilni ham,

ideologiya shakllaridan hisoblangan falsafa va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni ko'p vaqt bir-biridan farq qilmaydi".

Alisher Navoiy ona tilidagi so'zlarning barcha imkoniyatlaridan imkoni boricha to'liqroq foydalanishga harakat qildi. Zamondoshlari tilidagi faol va nafaol so'zlarni o'z asarlariga kiritib, ularning bizning zamonamizgacha yetib kelishini ta'minladi. O'zi ko'plab yangi so'zlarni yaratdi, oldindan qo'llanib kelayotgan so'zlarning yangicha ma'no tovlanishlarini kashf qildi, tilning ifoda imkoniyatlarini amaliy jihatdan ham juda kengaytirdi. Olimning sinonimlar, omonimlar, atamashunoslik borasidagi fikrlari ham qadrlidir. Asarda it, tush, yoq, bor, sog'in, tuz singari so'zlarning bir necha ma'nolarni ifodalay olish imkonini ko'rsatuvchi misollar keltirilgan. Jumladan, ko'k so'zining osmon, kuy, kuylamoq qadoq, sabza – o't-o'lan ma'nolarida qo'llanilishi ko'rsatiladi. Ayrim so'zlarning to'rt, besh, olti ma'noda qo'llanishiga misollar keltiradi. Alisher Navoiy hassos tilshunos sifatida forsiy til amaliyotida turkiy tildan o'tgan so'zlarga ham e'tibor qaratadi. Masalan, tubichoq, arg'umoq, yaka, yobu, totu singari ot turlarini, dastor, qalpoq, to'ppi, shirdog', yog'lig' singari bosh kiyimlarini, qo'rchi, suvchi, qushchi, qo'ruqchi, kiyikchi, kemachi, qo'ychi singari kasb va hunarlarning nomlarini forsiylar ham turkiycha so'zlar bilan yuritishi ko'rsatiladi. Shundan so'ng adib «bu xalq orasida paydo bo'lg'on tab' ahli salohiyat va tab'larin o'z tillari turg'och o'zga til bila zohir qilmasa erdi» degan istakni bildiradi. Yana qo'shib qo'yadiki, «agar ikala til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi... agar mubolag'a qilsalar, ikala til bila teng aytsalar erdi». Garchi asar ona tilining imkoniyatlari va qonuniyatlari borasida bahs yuritsa-da, unda adabiyotshunoslikka oid ko'plab fikr va mulohazalarni ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning bitmas-tuganmas xazina atalmish so'z durdonalaridan bahramand bo'lmagan, ummonga qiyos qilgudek ijod olamidan bir qatra yod bilmagan kishi bo'lmasa kerak. Har bir xalqning milliy o'zligi, eng avvalo uning tilida aks etadi. Vatan istiqlolini mustahkamlamoqday sharafli ishda ona tiliga, hazrat Navoiy kabi buyuk ajdodlar merosiga buyuk kuchdir. Mutafakkir shoirimizning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami", degan satrlarida qanchalik chuqur ma'no bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb uqtirmoqda ulug' bobomiz.

Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san'ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — B. 112]
2. Navoiy, Alisher. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik / A.Navoiy; – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.-768 b.J.6: Xamsa:Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin.-812 b
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur Gulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. –B.
4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 2010.
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA‘LIM TIZIMIDA KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
9. Hamidullo o‘g‘li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.
11. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
12. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.
13. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.

14. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.

15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.

16. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

17. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. Общество и инновации, 2(10/S), 261-267.

18. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF POLITICAL PARTIES. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 79-88.

19. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). PROCEDURE FOR REGISTRATION OF PUBLIC ASSOCIATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 740-746.

20. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89-94.

21. Ramazanovich, N. M., & Alisherovich, A. A. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF THE FAMILY IN UZBEKISTAN. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 732-739.

22. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 747-756.

23. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 70–78.

24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89–94.

25. Ramazanovich, Mallaev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 2, 2020, pp. 1-5.

26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos

27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. *Общество и инновации*, 2(11/S), 150-154.
28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 69-72.
29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 143-145.
30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 1(6), 72-77.
31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. *Взгляд В Прошлом*, 3(4).
32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 176-186.
33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. *European Scholar Journal*, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. *The American Journal of Interdisciplinary*.
34. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. *European Scholar Journal*, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. *The American Journal of Interdisciplinary*